



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

METAFORA LINGVISTIK VA KOGNITIV TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Arislanova Muxlisa Zokir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada metafora hodisasining an'anaviy ritorik va stilistik vosita sifatidagi talqinidan zamonaviy kognitiv-semantik tadqiqotlar obyektiga aylanish jarayoni atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda metaforaning nafaqat nutqni bezatuvchi tasviriy vosita, balki inson tafakkuri, bilish jarayoni hamda olamning kognitiv manzarasini shakllantiruvchi fundamental mexanizm ekanligi o'zbek va jahon tilshunosligida shakllangan ilmiy qarashlar asosida yoritilgan. Kognitiv metafora nazariyasi doirasida mavhum konseptlarning konkret tushunchalar yordamida ifodalanish qonuniyatlari tahlil qilinib, xususan, o'zbek va ingliz tillaridagi somatik frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, badiiy matnda individual mualliflik olam manzarasini yaratishda konseptual xaritalash mexanizmining o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari metaforaning til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi murakkab kognitiv hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, olamning lisoniy manzarasi, donor maydoni, maqsad maydoni, o'zgarimaslik gipotezasi, somatik frazeologizm, kognitiv xaritalash.

МЕТАФОРА КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО И КОГНИТИВНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Арисланова Мухлиса Закир кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера
Навои, базовый докторант

Аннотация

В данной научной статье всесторонне анализируется процесс превращения метафоры из традиционного риторического и стилистического средства в объект современных когнитивно-семантических исследований. Метафора рассматривается не только как образное средство украшения речи, но и как фундаментальный механизм человеческого мышления, познания и формирования когнитивной картины мира. На основе взглядов представителей узбекского и мирового языкознания раскрываются основные положения когнитивной теории метафоры. В рамках данной теории анализируются закономерности осмысления абстрактных концептов через конкретные понятия, а также проводится сравнительный анализ национально-культурной специфики соматических фразеологизмов в узбекском и английском языках. Кроме того, раскрывается роль концептуального картирования в создании индивидуально-авторской картины мира в художественном тексте. Результаты исследования подтверждают, что метафора представляет собой сложное когнитивное явление, отражающее взаимосвязь языка, мышления и культуры.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, языковая картина мира, домен-источник, домен-цель, гипотеза инвариантности, соматический фразеологизм, когнитивное картирование.

METAPHOR AS AN OBJECT OF LINGUISTIC AND COGNITIVE RESEARCH

Arislanova Muxlisa Zokir qizi

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Researcher

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the transformation of metaphor from a traditional rhetorical and stylistic device into an object of modern cognitive-semantic research. It argues that metaphor is not merely a figurative means of embellishing speech but also a fundamental mechanism underlying human cognition, conceptualization, and the construction of the cognitive worldview. Drawing on the works of Uzbek and international linguists, the study examines the key principles of Cognitive Metaphor Theory. Particular attention is paid to the ways abstract concepts are structured through concrete experiences, as well as to the comparative analysis of the national and cultural characteristics of somatic phraseological units in Uzbek and English. The article also explores the role of conceptual mapping in

constructing an individual authorial worldview within literary texts. The findings confirm that metaphor is a complex cognitive phenomenon reflecting the intricate relationship between language, thought, and culture.

Keywords: cognitive linguistics, conceptual metaphor, linguistic worldview, source domain, target domain, invariance hypothesis, somatic phraseologism, cognitive mapping.

Insoniyat tafakkuri va lisoniy tizim o'rtasidagi o'zaro murakkab bog'liqlikni o'rganish tilshunoslik fanining eng qadimgi va shu bilan birga eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda yuz bergan jiddiy metodologik burilish, ya'ni strukturalizmdan funksionalizm va kognitivizm paradigmalariga o'tish til hodisalarini yangicha nuqtai nazardan tahlil qilishni taqozo etdi. Kognitiv tilshunoslik til va inson ongi o'rtasidagi munosabatlarni, dunyoni konseptualashtirish va turkumlashtirishda lisoniy vositalarning rolini tadqiq qiluvchi mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. Mazkur paradigma doirasida "dunyoning til manzarasi", "konsept", "diskurs" va "geshtalt" kabi fundamental tushunchalar ilmiy muomalaga kiritildi. Inson ongidagi bilim strukturalarini aks ettirish, saqlash va qayta ishlash mexanizmi sifatida metafora ushbu paradigmada mutlaqo o'zgacha maqomga ega bo'ldi. An'anaviy tilshunoslikda metafora faqatgina adabiy-uslubiy bezak, yashirin o'xshatish yoki nutqqa obrazlilik va ekspressivlik beruvchi leksik ko'chim turi sifatida ko'rilgan. Zamonaviy kognitiv-semantik tadqiqotlarda esa inson tafakkurining borliqni anglash va modellashirishdagi asosiy quroli deb e'tirof etilmoqda. Shunga ko'ra, metaforani lingvistik va kognitiv nuqtai nazardan tadqiq etish inson tafakkuri va milliy olam manzarasining lisoniy shakllanish mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Ritorika va poetika rivojlangan antik davrlardan buyon metafora nutqning bezagi va badiiy tasvir vositasi sifatida talqin qilingan. Aristotel zamonidan boshlab shakllangan an'anaviy yondashuvga ko'ra, metafora ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlik aloqalariga asoslangan holda so'zning o'z ma'nosidan ko'chma ma'noga o'tishi hisoblanadi. Bunday an'anaviy yondashuv doirasida adabiy va lingvistik metaforalar farqlangan. Biroq, XX asrning so'nggi choragida kognitiv fanlarning jadal rivojlanishi metafora hodisasiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. 1980-yilda Jorj Lakoff va Mark Jonson tomonidan nashr etilgan "Metaphors We Live By" fundamental asari kognitiv tilshunoslikda yangi yo'nalish – Konseptual metafora nazariyasiga (Conceptual Metaphor Theory) asos soldi. Ushbu nazariyaga ko'ra, metafora faqat tilda, ya'ni so'zlar sathida mavjud bo'lgan bezak emas, balki kundalik fikrlashimiz va faoliyatimizni boshqaradigan kognitiv mexanizmdir.

Kognitiv paradigmada metafora ikki mutlaqo boshqa semantik soha – donor maydoni (source domain) va qabul qiluvchi yoki maqsad maydoni (target domain) o'rtasidagi konseptual bog'lanish (conceptual mapping) sifatida aniqlanadi. Inson o'z jismoniy tajribasiga tayanib, aniq, konkret va oson idrok etiladigan tushunchalar (donor maydoni) yordamida mavhum va murakkab g'oyalarni (maqsad maydoni) tizimlashtiradi va tushunadi. Mazkur xaritalash jarayoni tasodifiy bo'lmay, ma'lum tizim va qat'iy mantiqiy qonuniyatlarga asoslanadi. Kognitiv jarayonlardagi asosiy vazifa inson miyasidagi analogik qobiliyatlarning voqelik hodisasi sifatida metaforalar tomonidan amalga oshirilishidir [4; 33–36-b.]. Metafora orqali inson ongi mavhum tushunchalarni konkretlashtiradi, har bir kognitiv metafora zamirida muayyan jamiyatning qadriyatlar tizimi va madaniy kodi yashiringan bo'ladi.

O'zbekistonda kognitiv paradigma asosan XXI asrning boshlarida shakllandi va keng tadqiqot yo'nalishlariga yo'l ochdi. Sh. Safarov o'zining "Kognitiv tilshunoslik asoslari" asarida kognitiv yo'nalishning lisoniy va falsafiy asoslarini tahlil qilib, inson ongida stereotip bilimlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan konseptual tuzilmalarni – freym, ssenariy, skript, geshtalt va prototip modellarini batafsil yoritib berdi. Olimning tadqiqotlarida tilning bilim qatlamlarini tashkil etish, qayta ishlash va saqlashdagi kognitiv roli ochib berilgan bo'lib, til va tafakkur munosabatlarini "tildan konseptga" va "konseptdan tilga" yo'nalishlarida o'rganish lozimligi asoslangan [6; 14–23-b.].

Shuningdek, D. Ashurova o'zbek tilshunosligida kognitiv stilistika va badiiy matn interpretatsiyasining yangi nazariy modelini yaratdi. D. Ashurova tadqiqotlarida kognitiv metafora matndagi konseptual axborotni kodlash va dekodlashning eng samarali vositasi, muallifning individual olam manzarasining eng muhim lisoniy aks etish shakli deb baholanadi. Olima badiiy matnda kognitiv prinsiplardan ikoniklik (iconicity), ortiqlik (redundancy) va lisoniy iqtisod (economy) tushunchalarini kognitiv stilistikaning fundamental asoslari sifatida tadqiq etdi va konseptual metaforalarni matn sathida tahlil qilish metodologiyasini rivojlantirdi.

Kognitiv tilshunoslikning tarmoqlanishi natijasida bugungi kunda uchta asosiy yo'nalish alohida tadqiq etilmoqda:

1. Kognitiv semantika (leksik va frazeologik sathdagi ma'no konseptuallashtirishini o'rganadi).
2. Kognitiv grammatika (sintaktik va morfologik modellarning kognitiv asoslarini tahlil qiladi).
3. Kognitiv fonologiya (tovush tizimining kognitiv idrok etilishini tadqiq etadi) [1; 6–9-b.].

Kognitiv metafora nazariyasiga ko'ra, inson miyasida borliqni tizimlashtirish va analogik tafakkurni amalga oshirishda kognitiv metaforalar uchta asosiy guruhga bo'linadi: strukturaviy (structural), orientatsion (orientational) va ontologik (ontological) metaforalar. Har bir tur insonning dunyoni bilish va tajribalarini umumlashtirish usullarini o'zida aks ettiradi.

Kognitiv metaforaning shakllanishida “o'zgarimaslik gipotezasi” muhim o'rin tutadi. Mazkur gipotezaga binoan, donor sohasining topologik strukturasi maqsad sohasining ichki kognitiv tuzilishiga mos keladigan darajada saqlanadi va bu xaritalash jarayonida mantiqiy nomuvofiqliklar kelib chiqishining oldini oladi. Natijada muayyan “metaforik oqibatlar” yuzaga keladi, ya'ni donor sohadagi mantiqiy xulosalar maqsad sohadagi qarorlar va xatti-harakatlarni belgilaydi.

Kognitiv metaforalar insoniyat uchun universal asoslarga ega bo'lsa-da, ularning lisoniy verballashuv jarayoni muayyan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashi ta'sirida o'ziga xos shakllarga kiradi. Chunonchi, ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv metaforalarning chog'ishtirma tahlili til sohiblarining mental dunyosini ochib berishda juda muhimdir. Masalan, ingliz madaniyatida individualizm, shaxsiy muvaffaqiyat va iqtisodiy unumdorlik kabi qadriyatlar yetakchi o'rinda tursa, o'zbek xalqi uchun jamoaviylik, inson qadri va ma'naviy hamjihatlik ustuvordir. Ushbu farqlanishlar insonning o'z tanasini va tana a'zolarining funksiyalarini anglashiga asoslangan somatik frazeologizmlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Somatik metaforalar jismoniy borlig'imizni lisoniy olam manzarasida aks ettirishning birlamchi vositasidir.

Quyidagi jadvalda ingliz va o'zbek tillaridagi somatik metaforik ifodalar konseptual muvofiqlik darajalariga ko'ra qiyoslangan:

Guruh va xususiyati	O'zbek tilidagi somatik ifoda	Ingliz tilidagi muqobili	Kognitiv va lingvomadaniy interpretatsiya
To'liq moslik (Ham ma'no, ham somatik komponent bir xil)	“Ko'z ochib yumguncha”	“In the blink of an eye”	Inson jismoniy fiziologiyasining universalligi va vaqt tezligini idrok qilishdagi umumiylik.
To'liq moslik (Ham ma'no, ham somatik komponent bir xil)	“Ko'z yummoq”	“To close one's eyes to something”	Biror nojo'ya harakatni ataylab ko'rmaslikka olishning universal vizual proyeksiyasi.
To'liq moslik (Ham ma'no, ham somatik komponent bir xil)	“Yurakdan suhbat”	“Heart to heart talk”	Yurakning hissiyotlar va samimiylik markazi ekanligi haqidagi universal kognitiv tushuncha.
Konseptual moslik (Ma'no bir xil, somatik komponent farqli)	“Bosh qotirmoq”	“To rack one's brains”	Intellectual faoliyat markazi sifatida o'zbek tilida umumiy jismoniy a'zo “bosh” tanlansa, ingliz tilida “miya” (brains) o'ziga xos tarzda ajratiladi.
Konseptual moslik (Ma'no bir xil, somatik komponent farqli)	“Bag'rini keng ochib”	“With open arms”	Samimiylik va mehmondo'stlik o'zbek madaniyatida “bag'ir” (ko'krak/yurak sohasi), ingliz tilida esa “qo'llar” (arms) orqali ifodalanadi.
Somatik moslik, ma'no turlicha (Komponent bir xil, ma'no farqli)	“Oyog'idan chalmoq”	“To pull someone's leg”	O'zbek tilida kimsaga g'arazgo'ylik bilan zarar yetkazish ma'nosida ishlatilsa, ingliz tilida shunchaki hazillashishni anglatadi.
Somatik moslik, ma'no turlicha (Komponent bir xil, ma'no farqli)	“Boshini ko'kka ko'tarmoq”	“Head in the clouds”	O'zbekcha ibora g'ururlanish yoki kibranishni anglatrsa, inglizcha ibora xayolparastlik yoki chalg'ishni bildiradi.

Hissiyotlarning lisoniy konseptuallashtirishida ham ushbu milliy va madaniy modellar yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, “qo'rquv” (fear) hissiyotini ifodalashda o'zbek tili ichki a'zolar bilan bog'liq obrazlarga (“yuragi orqasiga tortib ketdi”, “o'ti yorildi”, “yuragi qon bo'ldi”, “bag'ri qon bo'ldi”) juda boydir. Bu esa emotsional kechinmalarni insonning ichki ruhiy muvozanati va ma'naviy dunyosi buzilishi sifatida idrok etish an'anasiga bog'liq bo'lib, o'zbek xalqining his-tuyg'ularni ichki olam (yurak va qalb)

orqali konseptualashtirishga bo'lgan moyilligini ko'rsatadi. Ingliz tilida esa qo'rquv ko'pincha tashqi jismoniy reaksiyalar va xatti-harakatlar ("frozen with fear", "shaking like a leaf", "cold sweat") orqali verballashadi. Mazkur farqlar ingliz nutqiy madaniyatining pragmatizmga va kuzatiladigan xatti-harakatlarga, o'zbek nutqiy madaniyatining esa chuqur emotsionallik va ma'naviy his-tuyg'ularga moyilligidan dalolat beradi.

Shuningdek, o'zbek madaniyatida sabr kabi fazilatlar tabiat hodisalari va mustahkam obyektlar bilan bog'lanib, "tog'dek sabr" ko'rinishida idrok etiladi va bu xalqning ichki kuchi hamda barqarorligini ifodalaydi. Bilim esa ingliz tilida kuch bilan assotsiatsiya qilinsa ("Knowledge is power"), o'zbek tilida boylik sifatida qadrlanadi ("Bilim – boylik"). Bu kabi farqlar milliy dunyoqarashlarning lisoniy tizimda qanday aks etishini ko'rsatuvchi muhim omillardir. Kognitiv poetika va stilistikaning metodologiyasi badiiy matndagi individual mualliflik dunyo manzarasini ochishda kompleks yondashuvni talab etadi. Muallif tomonidan qo'llanilgan kognitiv metaforalar uning estetik qarashlari, mafkurasi va ijodiy niyatini ochib beruvchi kognitiv xaritalar hisoblanadi. Bunday metaforalarni tahlil qilish matnning chuqur qatlamlaridagi konseptual axborotni to'g'ri dekodlash imkonini beradi.

Quyida Rauf Parfi she'rlari misolida "sevgi" konseptining kognitiv metaforik ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

"Otashin muzlarda isinaylik" — Sevgi = Harorat. Sevgi doim ham yoqimli bo'lmaydi. U juda ko'p hollarda qarama-qarshi (muz va olov) hissiyotlar majmuini ifodalaydi.

"Yong'inli daryoda quloch otaylik" — Sevgi = Xavf. Sevgi chuqur, boshqarib bo'lmas va g'arq bo'lish xavfi bo'lgan kuchli oqim sifatida tasvirlangan.

"Sevgi, sevgi mening bo'g'zimda" — Sevgi = Jismoniy holat. Sevgi inson bo'g'zida tiqilib qolgan nafas. Uning iztirobi tanaga og'ir bosim beruvchi kuch sifatida gavdalanadi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar va qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metafora faqatgina ritorik yoki stilistik vosita, tilning majoziy bezagi emas, balki inson ongi va tafakkurini boshqaradigan, olamning kognitiv manzarasini shakllantiruvchi universal mexanizmdir. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi tufayli metaforaning borliqni bilish va tajribalarni tizimlashtirishdagi fundamental roli ochib berildi.

O'zbek tilshunosligida Shavkat Safarov va Dilfuza Ashurova kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy maktab va nazariy asoslar o'zbek tilining milliy-kognitiv salohiyatini aniqlashga xizmat qilmoqda. O'zbek tili materiallarida somatik metaforalar va hissiyot ifodalovchi frazeologizmlarning konseptual tahlili shuni ko'rsatadiki, inson fiziologiyasining universalligi kognitiv metaforalar uchun umumiy baza bo'lsa-da, har bir xalqning milliy-madaniy qadriyatlari va turmush tarzi o'sha metaforalarning lisoniy qobig'ini va emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o'ziga xos tarzda muhrlaydi. Ushbu kognitiv va lingvomadaniy qonuniyatlarni chuqur o'rganish madaniyatlararo muloqotni to'g'ri tashkil etish, tarjimashunoslikning nazariy muammolarini hal etish hamda zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova D. U., Galieva M. R. Cognitive Linguistics. Toshkent: VneshMediaGroup, 2018.
2. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
3. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2010.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. 2012. B. 220–225.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
7. Sayidrahimova N. S. Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo'nalish // O'zbekistonda xorijiy tillar. 2022. № 2 (43). B. 98–107.
8. Yusupova A. M. Kognitiv metafora nazariyasiga oid qarashlar // O'zbekistonda xorijiy tillar. 2023. № 2 (43). B. 102–115.